

MAKEDONIYALIK ALEKSANDRNING HAYOTI, DAVLATI, HARBIY YURISHLARI VA DAVLATNING PARCHALANISHI

Yaqubov Xalilbek Asqarovich.

Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix(mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi

232 –guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Makedoniyalik Aleksandrning hayoti va davlati hamda uning harbiy yurishlari asosan Yaqin Sharq va Osiyoga yurishlari, davlatining parchalanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Aleksandr, Makedoniya, Filipp II, Olimpiada, Aristotel, Yunoniston, Ellinistik, Bobil, Baqtriya, So'g'diyona, Salavka, Antigon, Butsefal.

Kirish:

Makedoniyalik Aleksandr miloddan avvalgi 356-yilda Makedoniya poytaxti Pella shahrida tug'ilgan. U Makedoniya podshoxi Filipp II ning o'g'li, onasi esa Ipr shohining qizi Olimpiada edi. Aleksandr yoshligidan yuqori intellekt sohibi edi. 6-7 yoshida Lirada (torli tirnama yunon cholg'u asbobi) kuy chala olgan. Katta yoshli insonlar bilan turli mavzularda suhbat qurban. Aleksandr 13-14 yoshga to'lganida unga buyuk Yunon faylasuf va olimi Aristotel ustozlik qila boshlaydi. U butun grek adabiyotini o'qib chiqadi. Gomer Aleksandrning sevmlı yozuvchisi bo'lgan. Aristotel yosh Aleksandrga ko'proq siyosat, etika va falsafadan tashqari, tibbiyat adabiyot va she'riyatdan saboq bergan. Aristotel Aleksandrning harbiy yurishlarida ham unga hamrihlik qilgan. Aleksandr yoshligidan izzat talab , qaysarlik va maqsad sari intilish kabi hislatlarini ko'rsatib kelgan. Boshqa tomondan esa u jismoniy lazzatlarga butkul befarq bo'lgan¹

Aleksandr hayotidagi eng muhim inson – bu uning otasi Filipp II Makedonskiydir. Aleksandrga eng ko'p ta'sirni Aristotel emas balki uning otasi Filipp o'tkazgan. Aleksandr hayotining katta qismi davomida unga taqlid qilishga uringan , ulg'ayib shaxsiy harbiy muvaffaqiyatlarga erishganidan keyin Filipdan o'zib ketishni istagan. Aleksandrning barcha yutuqlariga erishishiga otasidan qolgan barqaror va mustahkam podshohlik hamda qudratli armiya xizmat qilgan.Ammo o'z podshohligi nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa Filipp II Aleksandrdan ko'ra yaxshiroq shoh edi. Antik davrdagi ayrim tarixchilar ham Filippni Aleksandrdan ko'ra yaxshiroq deya hisoblashgan. Filipp Aleksandr kabi ulkan xududlarni va imperiyani egallamagan

¹ Дубровский И. Александр – сын Зевса // Вокруг света. 2005. [140-153].

bo'lsada xalqining oldidagi o'z majburiyatlarini yaxshi bajargan. Aleksandrdan farqli o'laroq u o'limiga qadar oddiy makedon jangchisiligicha qolgan.

Aynan shoh Philipp II davrida Armiya ichida islohot o'tkaziladi va makedon falangasi tuziladi. Og'ir qurollangan piyoda jangchilar (goplitlar) 16-29 qator saflanadigan jangchilar 5 metrgacha uzunlikdagi sarissa (nayza)va qalqon bilan qurollanib, orqa safdag'i jangchilar sarissalarini oldingi qatordagi jangchilar yelkasiga qo'yari edilar²

Adabiyotlar tahlili:

Filipp II imperiyani boshqara turib Makedoniyanı Dunay daryosidan markaziy yunonistongacha cho'zilgan hududda yetakchi harbiy mamlakatga aylantirdi. Keyinchalik Philipp II Eron bilan urushga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshladi, ammo Sharqqa yurish g'oyasini amalga oshirish Philipp II ga nasib etmadı. Uning o'limi Yaqin Sharq va Osiyoga rejalshtirilgan hujumlar va barcha yutuqlarni xavf ostiga qo'ydi. Aleksandr miloddan avvalgi 336 -yilda otasi o'lган vaqtida 20 yoshda edi. Bashoratchilar keyinroq uning hukumronligi haqida aytgan edilar. Garchi Philipp II ni bir nechta merosxo'rlari bo'lsa ham, Aleksandrga Filippning butun hokimiyati merosxo'ri sifatida qaraganlar. Aristotel bilan birga bir nechta yunon ustozlari yunon adabiyoti va madaniyatidan ta'lim bergen. Aleksandr ulardan bir umrlik Gomerga muhabbatini va afsonaviy ajdodlari bo'lmish Axill va Geraklning qahramonliklariga tenglashish yoki o'tib ketish maqsadini oldi³.

Aleksandrda, shuningdek otasi Philipp yo'q paytda davlatni boshqarish bo'yicha amaliy tajriba bor edi. Bularga misol tariqasida Frakiya qo'zg'aloni bostirishini hamda miloddan avvalgi 338-yildagi Xeroniya jangida otliq qo'shinlarga qo'mondonlik qilganini aytish mumkin. Aleksandrning mavqeyi Imperianing dastlabki inqiroz yilida unchalik mustahkam emas edi. Bunga esa asosiy sabab Filippning ba'zi amaldorlari Yunonistoni qo'ldan boy berish xavfi tufayli Makedonianing shimoliy o'lkalari va Yunonistonning mustaqil qilishiga bo'lgan harakatlari sabab bo'ldi. Filippning dafn marosimi tugashi bilan Aleksandr otasi Filippning o'chini olish maqsadida o'zini mustaqil deb elon qilgan Yunonistonning asosiy polislari bo'lmish Afina va Fivaga yurish qilishga qaror qiladi⁴.

Yunonistondan qaytganida keyin Aleksandr miloddan avvalgi 335-yil bahorida Philipp dan keyin qolgan makedoniya asoratidan qutilishga qaror qilgan Tirakiya va Illiriyyaga qarshi yurish qiladi. Aleksandr Harbiy harakatlarini Danube daryosining shimologacha uzaytiradi. Philipp II miloddan avvalgi 339-yilda Skutiyadagi G'alabasidan keyin kansitilgan Triballi xotini va bolalari bilan yashayotgan orolga

² Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi (Sharq,Yunoniston,Rim)// " Fan va texnologiya", Toshkent, [2009]. [287 b].

³ Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi (sharq,Yunoniston,Rim)// "Fan va texnologiya", Toshkent, [2009]. [287 b].

⁴ O'rakov D. Jahon tarixi // "Innovatsiya-Ziyo", Toshken ,[2020].[198-199b].

omonlik so'raydi. Qolgan tirakiyan qabilalari Geta va Danube orasida qolishga majbur bo'lishadi.

Aleksandr armiyasining to'liq 37000 kishida iborat bo'lган, bundan tashqari Makedoniya Falanga piyodalari 12000 nafar, qo'shimcha 3 ming kishilik "qirol gvardiyasi" va 1800 kishilik otliq askardan iborat edi. Bundan tashqari , Illiriya va Tihrasaning 9000 ga yaqin yunon piyoda va otliq askarlari ham mavjud bo'lган . Qo'shinlarning dengizdagi asosiy transport vositasi 200 ta yunon kemalari bo'lган. Aleksandr Osiyodagi dastlabki harakatlari xuddi teatr sahnasidagiday bo'lган. U Osiyo tuprog'iga qadam qo'ygan ilk Makedoniya podshosi bo'ldi. Keyinchalik Aleksandr Troya shahriga bordi, afsonaviy Troya shohi Triamdan Afinani bosib olgani uchun kechirim so'raydi va ajdodi Axillesga xurmat ko'rsatadi.⁵

Makedoniya, Yunoniston, O'rta yer dengizining sharqiy sohillari, G'arbiy Osiyo, Qora dengiz atrofidagi mamlakatlar tarixining Aleksandr istilosidan miloddan avvalgi 30-yilda Misr Rim qo'shinlari tomonidan ishg'ol etilgan paytgacha bo'lган davrni o'z ichiga oladi. "Ellinizm" atamasi ilk bor nemis olimi I.D Droyzenning 1836-1843-yillarda chop etilgan 2 jildlik "Ellinizm tarixi" asarida qo'llanilgan. U yunon madaniyatining sharq xalqlari madaniyati bilan uyg'unlashib hosil qilgan yangi madaniyat tushunilgan. Ellinizm davri sharqiy mamlakatlar uchun taraqqiyotning yangi bosqivhi bo'ldi. Ellinizm Aleksandr Makedonskiy bosib olgan yurtlardagi xalqlar hayotining turli sohalari- iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy-ma'daniy hayotiga katta o'zgarishlarni olib kirib, ellistik madaniyatning ravnaq topishi va tarqalishiga zamin hozirlagan. Ellin madaniyatini asosan ilm-fan sohasida ko'rish mumkin. Avvalo yunonlarning ilk bor sharq madaniyati bilan yaqinda tanishishlari ularning ongini yana ham kengaytirib, fanning rivojiga kuchli tasir ko'rsatadi. Shu davrda ijod qilgan olimlar Evklid, Aarximed – matematikani, Aristarx va Gipparx astronomiyani, Erotasfen esa geografiyani yuksak daara jaga ko'tarib, jahon ilmining keying taraqqiyotiga yo'l ochadilar⁶.

Yunon dini ham ellin dunyosida ko'p qirrali o'zgarishlarni. Misrda Ptolomey I Aleksandriyaning yangi homiy hudosi sifatida yangi xudoni yaratishga buyurgan. Yangi xudo Sarapis, Osiris, Zevs, Dionis, Xadesning umumlashma xlatini birlashtirgan Misr Xudosi edi. Aleksandriyadan tashqari yunonlar odatiy Misr xudolari, jumladan, Osirisaga sig'nishgan. Yunoncha madaniyat ta'sirida Misr xudolari o'zgargan, Isida (Isis) – Osirisning xotini va Xorusning onasi edi. Uni Afrodita, Demetra, Afinalar,bilan

⁵ Xolliyev A.G. Jahon tarixi // "Navro'z", Toshkent,[2018]. [209-210b].

⁶ Xolliyev A.G. Jahon tarixi (Qadimgi Sharq, Qadimgi Ynoniston va Rim tarixi)// "Navro'z", Toshkent, [2018], [217-218b].

o'xshatishgan. U koinot qirolichasi, barcha odamlarga muruvvat qiluvchi, sivilaztsiya asoschisi bo'lgan.⁷

Muhokama:

Kichik Osiyo Yarimorolida, O'rtayer dengizi shimoli – sharqiy qirg'og'ida Iss shahri yaqinida Fors Podshosi Doro III va Makedoniya podshosi Aleksandr o'rtasida dastlabki jang yirik jang bo'lib o'tadi. Iss Jangidan keyin Forslar qarshiligini yetarli miqdorda yenggan Aleksandr Suriya va Finikiya tomon yo'l oldi. Lekin bu hududda Tir shahrigina ma'lum vaqt qarshilikni ko'rsatadi. Qattiq qarshilik va qamal bo'lganiga qaramasdan Aleksandr Tir shahrini egalladi va shaharni vayron etdi, 30.000 ga yaqin shahar aholisinini qul qilib sotib yuborildi. Iss jangida mag'lub bo'lganidan keyinggi yillar davomida Doro III armiyasiga askarlarni ehtiyyotkorlik bilan tanladi. Lekin piyoda askarlarning oldingi qatori kuchsiz edi. Doroning ehtiyyotkorlik bilan qilgan tadbirlariga qaramasdan Gavgamel jangi natijasi ham Iss janggiga o'xhash bo'ldi. Doro III gavgamel jangida jang maydonini tark etadi va Eronning sharqi tomon qochadi. Aleksandr Doro III ni asirga olomagan bo'lsada, Fors imperiyasining markazini egalladi. Doro III ning omon qolgan askarlari Aleksandrni Osiyoning shohi deb olqishlashadi. Aleksandr Bobil, Suza va persepolni egalladi. Bular Aleksandr uchun berilgan uchta ulkan in'om bo'ldi. Aleksandr Bobilga Miloddan avvalgi 331-yil oktabr oyi o'rtalarida tantana bilan kirib keldi. Aleksandr taslim bo'lган va uning tomoniga o'tgan Suza va Bobil satraplarini mukofotlaydi. Lekin Persepol shahri va aholisining ahvoli boshqacha bo'ldi.⁸

Strabonning "geografiya" asarida keltirilishicha miloddan avvalgi 329-yilda Makedoniyalik Aleksandrning Baqtriya va So'g'diyonaga yerlariga yurishi boshlangan. Bu yurishlar O'rta Osiyo tarixida eng yaxshi o'rganilgan mavzulardan biridir. Aleksandrning qo'shinida jangchilar bilan birga bo'lajak tarixchilar Ptolomey, Aristobul, Onesikrit, Kallisfen, va Xareslar xizmat qilib, o'z kundaliklarida turli xil siyosiy va madaniy voqealarni yozib borganlar. Ularning ma'lumotlari bizgacha yetib kelmagan. Miloddan avvalgi 329-yilda Aleksandr 15 kun davomida muz-qorli Hindiush tog'idan o'tib, Baqtriyaning markazi Baqtra hamda Drapsak va Aorn shaharlarini jangsiz istilo qiladi. Baqtriya va so'g'diyonaning satrapi Bess oxirgi ahamoniy podsho Doro III ni fitnachilar tomonidan o'ldirilishida qatnashib, o'zini Artakserk nomida "ulug' podsho" deb e'lon qiladi va Sug'diyonaning Nautaka viloyatiga qochishga majbur bo'ladi. Baqtriyadan Maroqandaga yetib boorish vaqt 12 kungga teng bo'lgan. Ahamoniylar davridan boshlab bir kunlik yo'l o'lchovi, Gerodotning aytishicha 50 stadiy yoki 5 farsax (28 km) ni tashkil etgan. Sug'diyonaga

⁷ Xolliyev A.G. Jahon tarixi (Qadimgi Sharq, Qadimgi Ynoniston va Rim tarixi)// "Navro'z", Toshkent,[2018], [219-220b].

⁸ Xolliyev A.G. Jahon tarixi (Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi)// "Navro'z", Toshkent,[2018], [211-212-213b].

yurish dastlab Baqtriya shahridan boshlangan. Aleksandr oziq-ovqat mahsulotlarini yetarli g'amlab olib, Oks – Amudaryoga yo'l oladi. Rim tarixchisi Kvint Kursiy Rufning ma'lumotlariga ko'ra, Baqtryadan Oks daryosigcha bo'lgan masofa 400 stadiy (75 km)ni tashkil qilgan. Bu masofani Aleksandr qo'shinlari ikki kun davomida bosib o'tib, Amudaryoni Termiz va Kalif o'rtaida kechib o'tadilar. Amudaryodan kechib o'tishning eng qadimgi joyi Termizdan g'arbdagi Sho'rob o'rniда miloddan avvalgi VI – IV asrlarga oid manzilgoh xarobalari topilgan. Aleksandr juda qattiq qarshiliklarga qaramay Baqtriya, Sug'diyona, va Usturshonaning bir qismini istilo qilib miloddan avvalgi 327-yilda Hindistonga hujum boshlaydi. O'rta Osiyoda Xorazm, Choch, Farg'ona va saklar yurti mustaqil bo'lib qoladi. Sug'diyona, Baqtriya, Marg'iyona va Parfiya yangi davlatga qo'shilib, keyinchalik ular Salavkiylar davlati tarkibiga kiradi⁹.

Miloddan avvalgi 329-327-yillarda Makedoniya podshosi Aleksandr Turondagi istilolaridan so'ng, 120 ming kishilik qo'shin bilan Hindikush va Sulaymon tog'laridan oshib o'tib, Panjob viloyatiga bostirib kiradi. Panjobdag'i mayda davlatlarning ko'pchiligi Makedoniyalik Aleksandrga itoat etadilar. Ammo Panjobdag'i eng kuchli podsholardan biri Por Aleksandrga qarshi kurashga otlanadi. Por ixtiyorida 30 ming piyoda, 4 ming otliq askar, 3000 jangovar arava va 200 jangovar fil mingan jangchilar bor edi. Ikki shoh askarlari o'rtaida shiddatli jang boshlanadi. Porning o'zi jangovar fil ustida dushmanlar bilan qahramonlarcha kurashib 9 joyidan jarohat oladi. Janglarning birida uning o'g'li halok bo'ladi. Ammo shunga qaramay u urush maydonini va askarlarini tark etmay, jangni davom ettiradi. Urush Aleksandr qo'shinlarining g'alabasi bilan tugaydi. Por bilan urushda Aleksandr ko'p Askarlaridan ayrıldi. Makedoniyalik Aleksandrnning sevimli jangovar oti "Butsefal" ham janglarning birida tig' tegib halok bo'ladi. Aleksandr halok bo'lgan oti sharafiga Hind daryosi bo'yida Butsefaliya shahrini qurdirgan¹⁰. Miloddan avvalgi 325-yilda Aleksandr Hind vohasida uncha katta bo'limgan qo'shin qoldirib, Hindistonni tark etadi. Aleksandr ketgach, ko'p o'tmay, hind qabilalari yunon-makedon asoratiga qarshi ozodlik urushni boshlab yubordilar. Bu harakatga mashhur Hind sarkardasi Chandragupta boshchilik qiladi. Miloddan avvalgi 317-yilda yunon-makedon qo'shinlari Hind vohasidan butunlay quvib chiqariladi.¹¹

Miloddan avvalgi 323-yilda Aleksandr Bobilda to'satdan vafot etganidan so'ng, u barpo etgan davlatdagi markaziy hokimyatga qarshi kuchlarning harakatlarning faollashuvi oqibatida yunon-makedonlar yurishlari natijasida vujudaga kelgan ulkan davlat parchalana boshlaydi. Uning o'rniغا nisbatan barqaror bo'lgan yunon-ellistik davlat uyishmalari paydo bo'la boshlaydi. Aleksandr davlatining parchalanishi va

⁹ Sagdullayev A.G. O'zbekiston tarixi.// VNESHINVESTPROM, Toshkent [2019], [194-205-208-b].

¹⁰ Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi.// Tafakkur, Toshkent [2016], [278-279-b].

¹¹ Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi.// Tafakkur, Toshkent [2016], [283-b].

uning harobalaridan yangi davlat tizimining paydo bo'lishi tinchlik yo'li bilan emas balki Makedoniyalik Aleksandrning yaqin sarkardalari ya'ni diadoxlar o'rtaida tinimsiz urushlar tufayli yuzaga keladi. Ularning jangu-jadallari natijasida Aleksandr mulklari bo'lib olinadi. Aleksandr vafotidan so'ng Baqtriya va Sug'diyona Kipr orolidan bo'lgan Yunon Statsonar qo'liga o'tadi. Hokimyat Aleksandrning diadoxlarining (sarkardalari) o'rtaсидаги tinimsiz urushlar natijasida Aleksandrning yirik qo'shiniga ega bo'lgan sarkardasi Salavka qo'liga o'tadi. Miloddan avvalgi 306 -yilda Salavka o'zini podsho deb elon qiladi. Shundan keyin tarix sahnasiga Salavkiylar nomi bilan atalgan davlat keladi¹².

Xulosa:

Aleksandr Makedonskiy o'z zamonasining eng buyuk, kuchli intellektga ega odami bo'lgan. Aleksandr turli tarix, din, madaniyat va dunyo qarashga ega bo'lgan xalqlarni birlashtirgan ulkan davlat yetakchisidir. Aleksandr bosib olingan xududlardagi mahalliy xalqlarning urf-odatlari, dini va qadriyatlarini yaxshi tushunmagani sababli uning boshqaruvi oson kechmagan. Aleksandr juda kuchli hukumdar bo'lib, 33 yoshga yetmay vafot etgan bo'lsada, o'z davrida ko'plab xududlarni ham zabit etdi. Hatto o'sha paytdagi podshohlar, qিollar, olimlar dunyoning oxiri deb hisoblagan Hindistonni zaminigacha yetib bordi. Aleksandr ulkan davlatni shohi bo'lishi bilan birga kuchli siyosatchi, o'z askarlarining jangovar ruhini tetik tutib turuvchi kuchli qo'mondon va xalq yetakchisi sifatida gavdalangan. U bosib olingan xalqlar va elatlarning an-analarini xurmat qilgan podshohdir. Ko'plab tarixchilar o'z asarlarida Aleksandr Makedonskiyni jahon xalqlari va davlatlarini birlashtirgan podsho va adolatli siyosat yuritishni maqsad qilgan shaxs sifatida tasvirlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дубровский И. Александр – сын Зевса // Вокруг светаю 2005. 216 с.
2. Rajabov R. Qadimgi Dunyo tarixi (Qadimgi sharq, Yunoniston, Rim.)//”Fan va texnologiya”, Toshkent,2009, 440 b.
3. Orakov D. Jahon tarixi.// “Innovatsiya – Ziyo”, Toshkent-2020,290b.
4. Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi.// “Tafakkur”, Toshkent-2016,366b.
5. Xolliyev A.G. Jahon tarixi(Qadimgi sharq, Qadimgi Yunoniston, Rim tarixi)//”Navro’z”, Toshkent-2018, -304b.
6. Sagdullayev S.A. O'zbekiston tarixi.//”VNESHINVESTPROM”, Toshkent-2019, 635b.

¹² Sagdullayev A.G. O'zbekiston tarixi.// VNESHINVESTPROM,Toshkent [2019],[224-225-b].